

EKOLOGIK MUAMMOLARNING SOHALARDA IXTISOSLASHUVI

Sadoqat Raxmatova

O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy

Kommunikatsiyalar Universiteti

2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada ekologik muammolar butun dunyodagi global muammoga aylanib borayotgani va ana shu kabi muammolar soni ortayotganligi uchun eko muammolarni har birini ajratgan holda sohalarga ixtisoslashtirib, shu orqali muammoning dolzarbliligi, hozirgi kundagi ahamiyati, insoniyatga ko‘rsatayotgan ta‘siri va bu borada qilinayotgan islohotlarning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, atmosfera, geni modifikatsiya qilingan mahsulotlar, tuproq, orol dengizi, cho‘llanish, iqlim o‘zgarishi, tabiat muhofazasi.

Tabiatning ma‘lum maydonida ekologik holatning buzilishi unga yondosh hududlarning ham tabiiy ahvolini o‘zgartirib yuborishga qodir, natija esa tahlikali – bundan nafaqat odamlar balki hayvonot va o‘simliklar olami, butun muhit zarar ko‘radi. Shuning uchun ham ekologiya muhofazasi butun dunyoda global muammo sifatida o‘rganilmoqda va uni bartaraf etish choralari izlanmoqda. Zamonaviy ekologiya o‘simliklar hayotini tasvirlabgina qolmay, u tiriklikning tuzilish darajalarini tahlil qilib, yovvoyi hayvonlar va o‘simliklarni to‘g‘ri nazorat qilish bilan ham shug‘ullanadi. Atmosferaning buzilishi tabiatdagi barcha tirik organizmlarga ta‘sir ko‘rsatib, turli kasalliklarni kelib chiqishiga va ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Ekologiya termenini yaqin-yaqingacha biologiya fanining bir sohasi deb tushunib kelganmiz, ammo bugungi kunda bitta biologiya sohasi bilan ixtisoslashibgina qolmay,

geografiya, huquq va agrar sohalarda ham ekologiyani ko‘rishimiz mumkin. Geografiya faniga ekologiyani bog‘laydigan bo‘lsak bunga iqlim o‘zgarishlari, cho‘llanishning ortishi, orol fojeasi kabi muammolarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Huquq sohasida esa ekologiya bo‘yicha bir qancha qonun hujjatlari belgilangan bo‘lib bular “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun va “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonunlardir. Ekologiya ixtisoslashuvidagi agrar sohaga to‘xtaladigan bo‘lsak, hozirda yer unumdorligini pasayganligi, suvdan unumli foydalanish maqsadida tomchilab sug‘orishni yo‘lga qo‘yilganligi, har xil geni modifikatsiya qilingan xom ashyo turlarining ko‘payib borayotganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Agrar sohadagi ixtisoslashuvga geni modifikatsiya qilingan mahsulotlarni kiritadigan bo‘lsak, o‘zi u nima degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bozor rastalaridagi terisida nuqtadek dog‘i yo‘q mevalar va shunga o‘xshash har xil don-dunlarni ko‘p uchratamiz, bularning ko‘pchiligi GMO mahsulotlaridir. Bunda bir mahsulot geni boshqa bir mahsulot geni bn chatishtirilib natijada esa yangi o‘simlik navi yaratiladi.

“Mahsulotlardan allergiya bo‘lish holatlari bolalarda 17%ni tashkil qilib, buning asosiy sababini olimlar GMO mahsulotlarning ko‘payganligi deb aytib o‘tgan. Bola organizmi begona oqsilga nisbatan sezgirligi yuqori, shuning uchun ham 2004 yilda Yevropa Ittifoqi 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar ovqatiga GMO mahsulotlarini qo‘shishni taqiqlab qo‘ydi. Ammo Rossiya davlatida sotuvdagi bolalar ovqatining 70%da GMO mavjud. Dunyoning turli mamlakatlari olimlari fikricha, GMO mahsulotlari iste‘mol qilingandan so‘ng allergiyadan tashqari immunitetning pasayishi, onkologik kasalliklar, toksikoz, bepushtlik, ovqat hazm qilish, asab tizimi kasalliklarining ko‘payishi ro‘y beradi”¹

O‘simliklarga sepiladigan gerbitsidlar inson organizmi uchun zararli bo‘lib, uning ma‘lum bir qismi o‘simlikning o‘zida qolgan qismi esa inson organizmiga tushib uni zararlaydi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida GMO mahsulotlarning ommaviy yetishtirilishi biologik xilma-xillikni kamayishi, atrof-muhit ifloslanishi, tuproqdagi

¹ T.me/agroblogger telegram kanali

turli xil bakteriyalar ayniqsa chuvalchanglar yo‘qolib ketishiga olib keladi. Yerdagi tuproq va undagi boy resurslar barcha tirik organizm, xususan insonlar uchun hayot manbai bo‘lib xizmat qiladi. “2013 yil 5 dekabr BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Butunjahon tuproq kuni deb e‘lon qilingan”². Yerdagi chuvalchang, qurt-qumursqa, kemiruvchi hayvonlar tuproq unumdorligini oshiradi. Chuvalchanglar yerda o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan modda biogumus ishlab chiqaradi. Yerlar sifatining yomonlashishi hosildorligning pasayishi, oziq-ovqat tarkibidagi ozuqa moddalarning kamayishiga olib keladi bu holat yer degradatsiyasi deb ataladi. Sayyoramizda sodir bo‘layotgan cho‘llanish tuproq degradatsiyasining asosiy sabablaridan biridir. Qizilqum va Qoraqum cho‘llari bilan tutash bo‘lgan Orol dengizi havzasi ekologik ofat zonasi deb e‘lon qilingan. O‘zbekiston hududida cho‘llanish bilan bog‘liq vaziyat yil sayin jiddiylashib bormoqda, bunga asosiy sabab Orol dengizi hududida cho‘llanish sur‘ati oshib, dengiz suvi o‘rnida qum, tuz paydo bo‘lishi, daraxtzorlar maydonining yildan yilga kamayishi, me‘yordan ortiq ko‘p suvdan foydalanish kabilardir. “O‘zbekiston hududining 70% dan ko‘proq hududi cho‘l va chala cho‘ldan iboratligini inobatga olsak, sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish, botqoqlanish, shamol va suv erroziyasi, yaylovlarda yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, cho‘llanishning ortishini ko‘rish mumkin. Orol dengizi suv sathining qurishi O‘zbekistonda yana qo‘shimcha 5,5 mln gektardan ortiq maydonda Orolqum paydo bo‘ldi”³. Natijada ekologik muhit toboro yomonlashib, cho‘llanish yanada kuchaydi va ko‘plab ijtimoiy muammolarni yuzaga keltirdi. Oqibatda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning mahsuldorligi yil sayin kamayib, oziq-ovqat, yem-xashak va sanoat xom-ashyolarini yetarli miqdorda yetishtirib berish sekinlashib, mahsulotlarning sifati pasayib bormoqda. Bu kabi ekologik vaziyatning yomonlashishi natijasida atrofdagi aholining shaharga ko‘chishi ko‘paydi. Birgina Mo‘ynoq aholisining aksariyat qismi ekologik holat yomonligi sababli boshqa hududlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘lmoqda.

² XXI asr insoniyat uchun so‘ngisi bo‘lishi mumkin. <https://qalampir.uz>

³ Cho‘llanishga qarshi Markaziy Osiyo, 4.11.2022.B.128. <http://www.newjournal.org>.

Orol fojeasini ekologik muammolarning geografik iqtisoslashuviga kiritadigan bo‘lsak, “Dengiz 1573 yilgacha Kasbiy dengiz bilan bog‘lanib turgan. Paleontologlar Orol dengizi qirg‘oqlaridan kit, akula va dengizda yashaydigan qizil baliq qoldiqlarini topishgan. 20asr o‘rtalarida Orol bo‘yida 10ta baliq zavodi va baliq konservalash kombinati ish yuritgan. 1981 yilda kema va paraxodlar qatnovi to‘xtatilgan, sababi orol dengizining 100kmdan ko‘proq qismi ichkariga chekinishni boshlagan. Orol bo‘yida umurtqali hayvonlarning 178 o‘simliklarning esa 1200 turi aniqlangan bo‘lib, Amudaryo qirg‘oqlaridan yiliga 1mlndan ortiq ondatra mo‘ynasi tayyorlangan. XXasrning 90 yillariga kelib, mo‘yna tayyorlash butunlay barham topdi”⁴. Bunda ekologik holatning yomonlashuvi cho‘llanishning ortishi, ekin maydonlarining va dengiz suvining kamayishi, suvdagi tirik jonzotlarning qirilib yo‘qolib ketayotganligidir. Bu muammo zamonamizdagi eng yirik eko fojialardan biri bo‘lib, butun dunyo e‘tibor markazida qolmoqda. Orolning qurishi minglab ish o‘rinlarining qisqarishi, suv hajmining kamayib uning natijasida tuz konsentratsiyasining keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Baliqlar, qushlar, hayvonlarning ko‘plab turlari yo‘qoldi. Qaynab turgan hayot to‘xtadi. Hozir u yerlarda qum bo‘ronlari va tonnalab tuz shamol bilan havoga ko‘tarilib ekologiyani yomonlashuviga insonlar salomatligiga havf solmoqda. Aholi orasida o‘pka kasalliklari va bolalar o‘limining ko‘payishi ortib bormoqda. Bundan tashqari odamlarning ekinlari tuz bo‘ronlari natijasida nobud bo‘lib, bu esa qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikka katta zarar yetkazmoqda. Orolagi ekologik holatni yumshatish maqsadida prezidentimiz tashabbusi bilan saksovlul ekish yo‘lga qo‘yilib, paxta ekin maydonlari kamaytirildi sababi suvni ko‘p qismidan ekinlarni sug‘orish uchun foydalanilgan. Saksovlulning foydali jihatini sanab o‘tadigan bo‘lsak qurg‘oqchikka chidamli, karbonod angidrid gazini yutib atrofni kislorod bn boyitadi va qumni ko‘chishini oldini oladi. Bundan tashqari uni yana bir yaxshi tomoni jonivorlarni chang to‘zonlardan himoyalashida panoh bo‘lishidir.

Ana shu kabi ekologik muvozanat yomonlashib borayotgan bir vaqtda iqlim o‘zgarishi ham jadallik bilan tezlashib bormoqda. “Haroratning ko‘tarilishi 1850-

⁴ <https://uz.m.wikipedia.org>

yildan boshlab, hozirgi kungacha 1 darajaga oshgan. Agar u 2 darajaga yetsa krizis holatlar yuzaga keladi. Sanoat inqilobi amalga oshirila boshlangach atmosfera karbonad angidridning miqdori 30%ga oshgan. Yer yuzida suvlik va quruqlikning taqsimlanishi, joyning geografik o‘rni, yer yuzasining tuzilishi, quyosh nurlarining yer sirtidan qaytishi ko‘rsatgichlari, atmosfera tarkibi va havo-dengiz oqimlari kabilardir”⁵. Deyarli dunyoning barcha qismida istiqomat qilayotgan insonlar iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarni tanalarida his etishmoqda. Iqlim ko‘rsatgichlarining yil sayin yomonlashib borayotganligi insoniyat shafqatsizlarcha ekologiyani zaharlayotganidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, iqlim o‘zgarishidagi xavflarni oldini olish uchun ish joylarda issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya boshqaruvini tartibga solish, global isish salohiyati past bo‘lgan sovutgichlarni ishlab chiqish, energiya tejaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishlarni ko‘proq amaliyotga tatbiq etish zarur. Bundan tashqari yurtimizdagi ommaviy axborot vositalari ekologiya muammolariga yetarli darajada e‘tibor qaratmayotganligi hamda jamiyat eko muammolarni to‘g‘ri qabul qila olmayotganligi barchamizga ma’lum. Bu kabi muammolarni yechish uchun bizga ko‘proq ekojurnalistlar, ekofaollar kerak, joylarda ekologik muammolar haqida ko‘proq treninglar, tushuntirish ishlari olib borish zarur. Buning uchun jamiyatning o‘zaro hamkorligi, jurnalistlardan esa auditoriyaga taqdim etayotgan material, axborotning sifatli bo‘lishi talab etiladi. Shu orqali ekologiyadagi vaziyatlarni oz bo‘lsada oldini olgan va o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

⁵ Н. Қосимова. Глобал иқлим ўзгариши ва журналистика. Ўқув-амалий қўлланма. –Т., Журналисларни қайта тайерлаш маркази. 2016. Б 11.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Н. Қосимова. Глобал иқлим ўзгариши ва журналистика. Ўқув-амалий қўлланма. –Т., Журналисларни қайта тайерлаш маркази. 2016.
2. Cho‘llanishga qarshi Markaziy Osiyo. 2022. <http://www.newjournal.org>
3. XXI asr insoniyat uchun so‘ngisi bo‘lishi mumkin. <https://qalampir.uz>
4. [T.me/agroblogger telegram kanali](https://t.me/agroblogger)
5. <https://uz.m.wikipedia.org>